

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995–yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

X.X.Raxmatova	
Naqshbandiya ta'limotida murosa falsafasiga munosabatning o'ziga xos xususiyatlari	98
X.A.Yulbarsova	
Bo'lajak sotsiologlarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslari	102
A.B.G'ulomov	
Yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirishning falsafiy jihatlarini	107
B.Raxmanov	
Ibn Sinoning nohiziqi tafakkur asosidagi falsafiy qarashlarida sinergetik tamoyillar	110
N.A.Imomova	
Mehnat migratsiyasi vujudga kelishining ijtimoiy omillar va shart-sharoitlari	117
L.R.Usmonova	
Falsafiy komparativistika qadimgi dunyo madaniy muloqoti muammolari kontekstida	122
B.S.Ganiyev, U.S.Maksumova	
O'zbekistonda tadbirkorlik madaniyati dinamikasining ijtimoiy-falsafiy jihatlarini	128
A.Tashanov	
Zigmund Freyd va Erix Fromm falsafasida inson destruksiyasining ayrim talqinlari	135
A.A.Qambarov	
Ma'rifatli avlodni tarbiyalashning ijtimoiy-falsafiy tahlili	140
D.X.Gafforova, I.I.Rizayev	
O'rta asrlar O'zbekiston maqbaralarida tug'larning islom va tangrichilikdagi muqaddas timsoliy vazifalari	144
J.J.Shodiyev	
Insonlarni qadrlash va uni ma'naviy-axloqiy jihatdan qo'llab-quvatlashda din va falsafaning o'rni	150
D.O.G'afurov	
O'zbek milliy nikoh marosimlarining transformatsion xususiyatlari va uning ma'naviy qiyofasi	155

SIYOSAT

R.B.Mirzabayev	
Yangi O'zbekistonda davlat xizmati sohasi takomillashuvi jarayonlari	159
R.A.Ikramov	
Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda huquqiy ta'lim-tarbiya va ommaviy axborot vositalarining o'rni	168
D.Sh.Maxkamov	
Nizolarni hal etishda mediatsiya institutining o'rni va ahamiyati	173
M.M.Safarov	
Yangi O'zbekiston yoshlari siyosiy ongi va madaniyatining transformatsiyalashishini futurologik istiqbollari	177

TARIH

A.Sharafiddinov	
Farg'ona viloyatining Andijon uyezdida paxtachilik va paxta sanoatining shakllanishi (XIX asr oxiri – XX asr boshlari)	185
M.F.Rasulov	
O'zbekiston minoralari haqida ayrim mulohazalar (qadimgi va o'rta asrlar davri)	190
M.H.Isamiddinov, M.H.Hasanov, N.Qambarov	
2022-yili Quva arkida olib borilgan arxeologik qazishma ishlari	196
F.E.Atajanova	
Xorazmda xalq maorifi tizimi rivojlanishi: muammolar, vazifalar va natijalar	200
B.T.Mirzaqulov	
Mang'itlar sulolasi davrida Buxoro amirligida davlat boshqaruvi	204

OHANGNING BADIY JIOLARI
ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ БЛЯНКИ МЕЛОДИИ
ARTISTIC GLOSSES OF MELODY

Qayumov Abduvahob Abdurashidovich¹

¹Qayumov Abduvahob Abdurashidovich

— Farg'ona davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya

Mazkur maqola xarakter yaratish masalasiga bag'ishlangan bo'lib, N.Jaloliddinning "Sevgi" hikoyasi misolida tahlil etiladi. Adibning obraz yaratish mahorati, detallarning qahramon ruhiyatini ochib berishdagi o'rni, epik kechinmaning milliy urf-odatlar bilan boyitilgani misollar yordamida tahlil qilingan. Tahlillarda hikoyaning struktural xususiyatlaridagi poetik funksiyalar e'tiborga olinib, badiiy mukammalikka erishishda ularning ahamiyati qay darajada ekanligi o'rganilgan. Badiiy ohang, badiiy ovoz materiallaridan qahramonlar xarakterini ochishda, syujetni harakatga keltiruvchi kuch vositasi sifatida samarali foydalanilgan ijodkorning mahorati tarzida tahlil qilingan. Asarning struktural, badiiy, milliy, tarbiyaviy xususiyatlari ochib berilgan.

Аннотация

Данная статья посвящена вопросу создания характера и анализируется на примере рассказа Н. Джалоллидина «Любовь». На примерах анализируются способности автора создать образ, роль деталей в раскрытии психики героя, обогащение эпических переживаний национальными традициями. При анализе учитываются поэтические функции в структурных особенностях рассказа, изучается их значение в достижении художественного совершенства. Проанализировано с точки зрения высокого уровня мастерства художника эффективное использование художественного тона и художественно-звукового материала в раскрытии характера персонажей, как средства ведения сюжета. Выявляются структурные, художественные, национальные и дидактические особенности произведения.

Abstract

This article is dedicated to the analysis of the art of character creation, using the example of N. Jaloliddin's story "Sevgi" (Love). The author's skill in creating images, highlighting the psychological aspects of the characters through details, and the use of national traditions and customs in depicting the epic narrative are analyzed with the help of examples. In the analysis, attention is paid to the poetic functions in the structural characteristics of the story, and the importance of these functions in achieving artistic perfection is determined. The author's skill is highlighted in using poetic language and vocal materials to reveal the characters' traits and to propel the plot forward. The structural, artistic, national, and educational characteristics of the work are also discussed.

Kalit so'zlar: obraz, personaj, qahramon, detal, milliyxarakter, hikoya, epikkechinma, ritorikso'roq, badiiynutq, peyzaj, ekspozitsiya.

Ключевые слова: образ, персонаж, герой, деталь, национальный характер, рассказ, эпическое состояние, риторический вопрос, художественное слова, пейзаж, экспозиция.

Key words: image, character, hero, detail, national character, story, epic feeling.

KIRISH

Hayotning ma'lum bir parchasini, qisqa sahifalarini ibratli, yorqin aks ettirishda hikoya janri muhim o'rinni egallaydi. Qisqa metrajli jarayonlar qisqaligi bilan ba'zan noqulaylik tug'dirsa, ba'zan shu qisqa fursatda, tasvirda asosiy maqsadga urg'u bera olish imkonining kengligi samadorlik yuqoriligini ko'rsatadi. Adabiyotshunos Shavkat Hasanov hikoyalarning she'riyatga yaqin jihatlari tahlilga tortadi: "Hikoya va she'rning oshnaligi ularda yaratilgan xarakterlarning bir-biriga yaqinligida ham ko'zga tashlanadi".

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Haqiqatan ham hikoyada, lirik qahramonlardagi kabi, xarakterlarning tadrijiy genezsi to'liq qalamga olinmaydi. Balki qisqa epizodlarda xarakterlarning nozik nuqtalariga ko'proq e'tibor beriladi. Ayniqsa, qalb kechinmalari asosiy mavzu qilib olingan hikoyalarda ijodkor qahramon psixologiyasini yoritishda lirik tuyg'ular tasvirini erinmay qalamga oladi. Nabi Jaloliddinning "Sevgi" hikoyasi ham ana shunday lirizimga boyligi bilan ajralib turadi.

ADABIYOTSHUNOSLIK

Hikoyaning xronikali syujeti juda oddiy, qisqa berilgan. Maktab o'quvchilari, paxta dalasi, terim jarayoni, javobsiz sevgi tasviri ifodalangan. Biroq shu oddiy va qisqa syujetda qahramonlarning psixologiyasi, yozuvchining badiiy niyati to'laqonli ochilgan.

Hikoyaning nomi va epigrafidanoq asarda tuyg'ular talqini yuqoriligi sezilib turadi. Hikoyaning nomi "Sevgi", unga Pushkinning sevgi haqidagi misralari epigraf qilib olingan. Bu unsurlar asarning mohiyati va qahramon yigit tuyg'ularini chuqurroq ochishga xizmat qiladi. She'ning mazmuni aynan vafosiz sevgilarga bag'ishlangani ham bosh qahramon ruhiyatiga juda yaqin keladi. Adabiyotshunos va yozuvchi Ulug'bek Hamdam ta'kidlaganidek: "Biz insonni shafqatsiz ravishda tadqiq etuvchi adabiyotni – ko'ngil adabiyotini uzoq vaqt sog'inib yashadi" . Hikoyaning nomi va epigrafi asarning badiiy mohiyatidan darak berib turibdi – u insoniy tuyg'ular tarannumiga, ko'ngilga sayrni amalga oshirish maqsad qilingan hikoya.

Tahlillar va natijalar. Asar syujeti odatiy ekspozitsiya bilan boshlangan. Qahramonlar haqidagi dastlabki ma'lumotlar, voqealar bo'lib o'tadigan vaqt, joy haqida ma'lumotlar beriladi. Voqealar bola tilidan hikoya qilinadi. Dastlab qahramonlar to'g'risidagi ma'lumotlarga e'tiborni qaratsak. Bola (ismi berilmagan) va Oygul 16-17 yoshdagi o'smirlar. Biz bilamizki, bu yoshda juda ko'p o'smirlar qalbida sevgi kurtaklari unib chiqayotgan bo'ladi. O'smirlar tanasida ham biologik, fiziologik va psixologik rivojlanish jarayonlari sodir bo'ladiki, bu holatlar ijtimoiy olamda tuyg'ularning junbushga kelishi, insonning olamga o'zgacha nigohlar bilan qaray boshlashi bilan namoyon bo'ladi. O'smirlar ongida olamni, jamiyatni anglashdagi yangicha qarashlar yuzaga kela boshlaydi. Sevgan insonini boshqalarga qiyoslashni, o'zini tanqidiy kuzatishni, sevgan insoniga yoqish uchun qanday ishlarni amalga oshirish mumkinligini o'ylay boshlaydi. Umuman, ko'proq o'ylashni boshlaydi. Bola va Oygul tanasida, ongida, qalbida ham shunday evrilishlar jarayoni sodir bo'layotgan edi. Bunday jarayonda deyarli barcha kishilar sevgi degan tuyg'u imtihonidan o'tadi. Bu yoshdagi sevgi samimiy, pok, beg'uborligi bilan boshqalaridan farq qiladi. Ya'ni keyingi jarayonlarda paydo bo'lgan sevgi tuyg'ulari soflik maqomida bu davr bilan tenglasha olmaydi. Shuningdek, o'smirlardagi bu jarayon ijtimoiy olamni anglash uchun qo'yilgan dastlabki qadamlardan biri sifatida inson qalbida bir umr muxrlanib qoladi.

"Hayot hodisalarini anglashda kishilar bir-biriga "oyna" vazifasini bajaradi" . Bola va Oygul o'rtasidagi munosabatlarni ham ko'zguga qiyoslash mumkin. Ular dastlabki uchrashuvlaridanoq bir-birlarining qalblarini ko'ra boshlaydilar. Har ikkida ham sevgi kurtagi bor. Faqat u qay tarzda rivojlanishini vaqt ko'rsatadi. Ilmiyroq tilda aytiladigan bo'lsa, har ikkala o'smirda ham yoshga xos fiziologik va psixologik yaqinliklar mavjudligi sababli hamda turli jins vakili bo'lganliklari uchun bir-birlariga qiziqish paydo bo'ladi. Ular bir-birlarini o'rgana boshlaydilar. Boladagi qiz haqidagi dastlabki taassurot ijobiy bo'lib, qizning tashqi go'zalligidan tashqari ovozi qahramonimizni asir etadi:

"Ovozi shunchalar yoqimli ediki, gapirganida xuddi erkanayotgandek tuyular va shu mahal eshituvchini-da, erka bir tuyg'ular og'ushiga solib qo'yardi" (53-bet).

Oygul boshqalar uchun juda yoqimli tuyulmagan bo'lishi mumkin, lekin bolaning qalbida o'zi bilmagan holda shakllangan mezonlarga mos kelgan. Badiyroq qilib aytadigan bo'lsak, bola qalbida Oygulga nisbatan muhabbat kurtaklari nish ura boshladi. Asarda ikkala yosh ham ruhiy jihatdan sevgi ostonasida turgan o'smirlar sifatida tasvirlangan. Ularga faqat qandaydir turtki, qalb mezonlariga mos mashuq(a) kerak.

"Nihoyat, oshnalarimdan kimdir meni ko'rsatib, "shoir" deya ta'riflay ketdi. O'shanda Oygul menga boshqacharoq qaradi, ko'zlari chaqnaq, xiyol tikilib ham qoldimi-yey. Menga bu xush yoqar, ammo hayajondanmi, yuz-ko'zlarim lov-lov yonardi" (53-bet).

Oygulning munosabati ham bolaga nisbatan befarq emasligini ko'rish mumkin. Ko'pchilikda uchramaydigan iste'dod egasiga qiziqish, shuningdek, o'smirlar davriga xos hissiyotlarni harakatga keltiruvchi kuch – she'riyat Oygulni bolaga yaqinlashtiradi.

Nabi Jaloliddin qahramonlarining psixologik holatlarini yana-da to'liqroq ochib berish uchun atayin hikoyaga shoir funksiyasini olib kiradi. Bilamizki, she'riyatda insonning qalb kechinmalari chuqur tasvirlanadi. Yozuvchi qahramonlar ruhiyati tasviridagi samimiylilikni saqlash uchun ularga shoirona suhbatlarni jalb qiladi:

"- She'rlaringizdan o'qib bering! – dedi u ham erka, ham yalinchoq bir ohangda"(53-bet).

Yozuvchi asardagi dramatismni oshirish uchun o'ziga xos tugunlardan foydalanadi. Dastlab ekspozitsiya bilan qarishiq holda kichik tugun tashlaydi. Bola Oyguldan bir yosh kichik:

“Bo'lmasa, u menda bir yosh katta bo'lib, oshnalarimning ichida uni opa, deb chaqirguvchilar ham bor edi”(53-bet).

Lekin qizni qattiq sevib qoldi. Boshqa ayrim xalqlarda bu arzimas masala bo'lishi mumkin, biroq o'zbek milliy xarakteriga ko'ra sevgi, oila borasida yigitning yoshi qiznikidan katta bo'lishi yoki xech bo'lmasa teng bo'lishi shart. Oygulning yoshi kattaligi esa bu sevgi qissasi baxtli yakun topmasligiga nozik ishora hisoblanadi. Hikoyada yakunning ijobiy bo'lmasligiga yana bir ishora mavjud. Oygul she'r so'raganda bola o'zining emas, boshqa mashhur shoirlar she'rlaridan o'qib berishidir. Bu – bolaning ijodiy jixatdan mashhur shoirlarga yeta olmaganligini tan olishi hamda psixologik jixatdan Oygul darajasida emasligini ichki tuyg'ular asosida sezishidir:

“Agar she'rlarim unga yoqmasachi, sharmanda bo'laman-ku. Shuning uchun mashhur shoirlarning she'rlaridan o'qib berdim. Ishqiy she'rlaridan. Avvaliga iymajib, keyin esa hayajon bilan o'qidim”(54-bet).

Ijodkor tomonidan badiiy makon va zamon ham zukkolik bilan tanlangan. Paxta dalasi hamda terim jarayoni ko'plab sevgilarning paydo bo'lishi, kamol topishi va qalblarning bir-biridan bahra olishi uchun qulay sharoit mavjud davr hisoblanadi. Shuningdek, paxta, paxtazor tasviri orqali hikoyaning tabiiyligi, hayotiy haqiqat talabiga ham mosligi ta'minlangan. Paxta terimi jarayonida ertalabdan kechgacha yonma-yon bo'lish imkoni bir-biriga yaqin dillarning uzoq suhbat qurishiga sharoit ko'pligi bilan ijobiylik kasb etadi. Nabi Jaloliddin asarda shuncha sharoitlarni yaratib yoshlarda sevgi kurtaklarini gurkiratib o'stiradi-da, birdan bu sevgi niholiga olov sepa boshlaydi. Asarda qo'llangan uchinchi va asosiy tugun bu – sevgi uchligida Xodiy obrazining paydo bo'lishidir. Yozuvchi Xodiy obrazini olib kirish bilan bola ruhiyatidagi sokinlikni parchalab tashlaydi. Bolaning sevgisi rivoj topmay so'ladi, qalb iztiroblari jiddiy psixologik taranglikni, tushkunlikni yuzaga keltiradi. Biroq bularning bari hayotiy haqiqat me'yorlariga mos keladi, ya'ni badiiy haqiqat hayotiy haqiqatdan ustunlik kasb etmagan. Shuningdek, yozuvchining asl niyati ham aslida kitobxonni insoniy tuyg'ular olamida sayr qildirish, sof, pok sevgilar hali ham mavjudligini ko'rsatish, hozirgi globallashuv va texnika zamonida e'tibordan chetda qolayotgan ruhiyat olamini tor va keng planda ko'rsatishdir. Bunda yozuvchi bolaning qalbini yorib, poralab (sevganiga yetishtirmasdan) bolaning ruhiy iztiroblarini ko'rsatishdan ham erinmaydi:

“Ha, katta tol tagida Hodiy bilan Oygul ro'baro' turishardi. Hodiy nimalarnidir gapirar, Oygul esa yerga qaragan ko'yi jimgina tinglardi. O'zimni yonboshga oldim. Yuragim dukillab, entika boshladim. Orqam bilan devorga qattiq suyandim, ko'zlarimni yumdim. Tag'in qasos o'ti vujudimni qizdira boshladi”(58-bet).

Xodiy tashqi ko'rinishi, dadilligi va qizlarga munosib so'z topib ayta olishi bilan ancha yoqimli obraz sifatida tasvirlangan. Oygulning sevgi parametrlariga boladan ko'ra Xodiy ko'proq mos kelib qoldi. Bu o'rinda Oygulni ayblash ham biroz no'ringay tuyuladi. Chunki yuqorida ta'kidlaganimizdek, hayot haqiqati masalasini taroziga solib ko'rgan har qanday qiz tomonidan o'zidan kichik bo'lgan boladan, xushro'y, dadil, yoshi katta yigit tanlanishi tabiiydir. Shuningdek, bolaning qo'rqqoligi orqasidan o'z sevgisini himoya qila olmaganligi ham Oygulni boy berishiga sabab bo'ladi. Dastlab bola bilan yurakdagi hislari hamohang bo'lgan Oygul Xodiy kelgandan so'ng o'zgarib qoladi:

“Ochig'i, men uning ovoqidagi o'zgarishdan lol edim. Uning ovozi qanaqadir dag'allashganmidiyey, yo'q-yo'q, to'g'rirog'i, farmonravo eshitalardi. Xullas, endi u negadir juda dadil gapirardi”(55-bet).

Qizning bola bilan suhbatlarida yurakdagi tuyg'ular ochiq aytilmas edi. Ular nozik pardalar ortiga sevgilarini yashirgan holda dildan gaplashar edilar. Xodiyning dadilligi, aniq sevgi izhori va aniq takliflar sabab Oygul uchun nozik pardalar ko'tariladi. Endi u boladan bir qadam oldinda edi. Shuning uchun bolaga munosabatida ham o'zgarish yuzaga keladi. Hodiy ta'sirida Oygul ham didillashadi, oldingi hamroxiga yosh bola sifatida qaray boshlaydi. Yozuvchi qahramonlar psixologiyasidagi bu kabi o'zgarishlarni tabiiy tasvirlagan va bu orqali voqealar rivojini jadalashtira olgan.

Nabi Jaloliddin Oygulni ham birdaniga Xodiyga ergashtirib yubormaydi. Milliy mentalitet, badiiy dramatism, psixologik moslashish kabilar inobatga olingan, albatta. Shuningdek, bolaga o'z

ADABIYOTSHUNOSLIK

sevgisini himoya qilish uchun ikki bora imkoniyat yaratib beriladi. Birinchi imkon Xodiyning paxta dalasi qirg'og'iga dastlabki tashrifida berilgan bo'lsa, ikkinchisi bola va qiz yoniga kelishidir. Har ikki holatda ham bola sevgisi uchun kurasha olmaydi, sevgisini, sevgilisini himoya qila olmaydi. Xodiyning uchinchi bor kelishida bola kurashga otlanadi, biroq kech bo'ladi. Hodiyya hujum qilishga otlangan bola ularning sevgisiga duch keladi:

“Mening hayqirganimgami yoki boshqa sababdanmi, ikkisi ham baravariga ortiga o'g'irilishdi-da, avvaliga hayrat bilan menga tikilishdi. So'ng esa yosh bolaning qilg'idan zavqlangan kattalar kabi birdaniga jilmayishib, yana asta yo'llariga ketaverishdi”(59-bet).

Bolaning sevgisi javobsiz qoldi. U yutkazganini og'ir psixologik tushkunlik bilan tan oladi. Biroq muhim jixat bu emas. Eng muhimi bolaning qalbida sevgi paydo bo'lganligi, uning qalbi qotib qolgan emas. Nabi Jaloliddin hikoyachiga ism bermaydi. U o'smir yoshidagi barcha bolalarning tipik vakili sifatida tasvirlanadi. Ular sevgisiga javob olsa yoki olmasa-da, eng muhimi, ular qalbida soflik, samimiylik, poklik ochib berilgan. Hikoyani o'qigan kitobxon yoshlikdagi ilk qalb tug'yonlarini yodga oladi, o'smirlikdagi beg'ubor tuyg'ulari jo'sh urgan onlarga hayolan sayr qiladi.

“Sevgi” hikoyasida ovoz detalining o'rni juda katta hisoblanadi. “Detal syujetni harakatga keltiruvchi motor hisoblanadi. Xarakterning o'ziga xosligi ham, qahramonning ichki olami ham, tashqi qiyofasi ham, voqealar rivoji ham, fikrning tiniqligi ham, syujetning taranglik kasb etishi ham – barchasi ana shu detallar orqali amalga oshadi hamda ta'sirchan va ishonarli chiqadi”. Birgina ovoz detalida professor Yo'ldoshxo'ja Solijonov yuqorida ta'kidlagan barcha unsurlar mavjud. Hikoyada berilgan “ovoz”lar tahlilini bir boshdan boshlaylik. Dastlab “syujetni harakatga keltiruvchi motor” vazifasiga e'tibor qaratsak.

Hikoya avvalida bosh qahramon – bolani Oygulning ovozi maftun qiladi. To'g'ri, qizning tashqi ko'rinishi ham unda yaxshi taassurot qoldirgan edi, biroq yozuvchi ovoz detaliga alohida urg'u beradi:

“Ovozi ham shunchalar yoqimli ediki, gapirganida xuddi erkalanayotgandek tuyular va shu mahal eshituvchini-da, erka bir tuyg'ular og'ushiga solib qo'yardi. Avvaliga aynan shu ovozi meni o'ziga asir etdi”(53-bet).

Asar ekspozitsiyasida berilgan bu tasvirda hikoyachi “men” qalbida sevgi kurtaklari uyg'onishiga Oygulning ovozi sababchi bo'ladi. Uning mayin ovozi o'smir qalbida hali bosh ko'tarmagan tuyg'ular, ishq uchqunlari paydo qiladi. O'z o'rnida syujetda kichik tugun paydo bo'ladi. Voqealar rivojlanish sari yo'l tutadi. Shuningdek, Oygulning qizlarga xos nozikligi, gapirish jarayonida ovoz tonidan mahorat bilan foydalana olishi, tinglovchi qalbiga ohang yordamida kira olish xarakteri shakllangan qizlardan ekanligi ko'zga tashlanadi.

Voqea rivojida ham ovoz detaliga murojaat qilingan bo'lib, bosh qahramonning harakatga kelishiga turtki bo'ladi. Ovozning ohangi ham muhim ahamiyat kasb etadi. “O'zbek xalqining ruhiyatida azaldan musiqa yashab kelgandek”. So'zlashuv jarayonidagi ohangning mahoratli ishlatilishi, balki shuning ta'siridir. Oygul o'smirning she'r yozishini eshitgach, undan she'rlaridan aytib berishini so'raydi. So'rov jarayonida mahorat bilan ishlatilgan ovoz ohangi esa bolani harakatga undaydi:

“ – Sher'larizdan o'qib bering! – dedi u erka, ham yalinchoq ohangda”(53-bet).

Agar ovozda “erka”lik va “yalinchoq”lik bo'lmaganda voqealar rivoji boshqacha tus olishi mumkin edi. Oygul istaklari jam bo'lgan mazkur ovoz ohangi tasvirida har qanday yigitning tuyg'ularini qo'zg'atadigan ko'rinmas harakat dinamikasi yashiringan bo'lib, bola ham bu ta'sirdan mustasno bo'lmaydi. Yigit “avvaliga iymonib, keyin esa hayajon bilan” she'rlar o'qiy boshlaydi.

Hikoya boshida o'smirni asir qilgan ovoz voqealar rivojida tugunni xosil qilishga ham yordam beradi. Xodiy bilan uchrashuvdan kelgan Oygulning ovozida o'zgarish yuz beradi. Bu o'zgarish qanday paydo bo'lganini anglash jarayonida bolada psixologik taranglik yuzaga keladi. O'z-o'zidan psixologik taranglik bolani kulminatsiyaga, Hodiyyan qasos olishga yetaklaydi:

“Ochig'i, men uning ovozdagi o'zgarishdan lol edim. Uning ovozi qanaqadir dag'allashganmidiyey, yo'q-yo'q, to'g'rirog'i, farmonravo eshitalardi. Xullas, endi u negadir juda dadil gapirardi. Bu menga alam qildi. Agar o'sha Hodiyy deganlari yana keladigan bo'lsa, mushtlashishni dilimga tugib qo'ydim”(55-bet).

Hodiyning xarakter xususiyatlarini tasvirlashda ham ovoz detali muhim rol o'ynagan. Yozuvchi paxtazorga kelgan Hodiyyning Oygulga murojaati fonida qo'llanilgan “mardona ovozda”,

“pastroq ovozda” kabi detallar yordamida holat ifodasini bergan bo‘lib, o‘ziga ishongan yigitligi, qizlar bilan suhbatda dadilligi, o‘zini boshqalardan yuqori tutishi kabi xarakterlari namoyon bo‘ladi.

“ – Hormanglar-hormanglar! – dedi u oldimizga yetib kelib, mardona ovoz bilan va pastroq ovozda qo‘shib qo‘ydi, - Oyguloy, sizda ozgina gapim boriydi-da. – Bu bilan u qizga biroz chetroqqa chiqaylik demoqchi bo‘ldi”(56-bet).

“Yozuvchining g‘oyaviy niyati asar organizmiga, xarakterlar vujudiga, qahramonlar ruhiyatiga, unda qo‘llangan har bir detal mohiyatiga singib ketishi zarur” . Hikoyasi “men”ning o‘zini Hodiyl bilan qiyoslash jarayonida ham xarakterdagi farqlar ovoz detali bilan ifoda etilgan. O‘smir Hodiyning o‘zidan ko‘ra dadil ekanligini tan oladi. Oygulni asir etishda Hodiyl ham ovozdan, ohangdan unumli foydalanayotganligini ko‘rib turadi:

“Axir men ham shunday deya chaqirishim mumkin edi-ku. Lekin Hodiyldek erka, shu bilan birga mag‘rur bir ohangda chaqira olarmidim? Ha, u Oy so‘zini juda-juda yoqimli aytardi”(56-bet).

Ovoz, ohang detali bolaning sevgi mojarosida yengilganligini, yengilganini tan olganligini ko‘rsatadi. O‘z-o‘zidan bu tasvirlarda yechimga ishora berilgan, biroq hali kulminatsiya mavjud. Kulminatsiyada hayqiriq detali voqealarni yechimga yetaklaydi. Bola shiypon ortidagi katta tol yonida Oygul bilan suhbat qurayotgan Hodiylga hujum boshlaydi. Uning “qorniga kalla sol”ib, sevgilisini tortib olgani uchun o‘ch olmoqchi bo‘ladi:

“Shu ko‘yi boshimni xiyol egib, zarb berishga tayyorlanganimdan yelkalarimni bir oz qisib, na‘ra tortganicha raqibim tomon yugurdim. Ha-ha hayqirganicha yugurdim”(59-bet).

Bolaning ko‘zini yumib olib, hujumga yugurishidan oldin Xodiyl va Oygul tol tagidan nari ketishgan edi. Ularning e‘tiborini tortib, orqalariga qarashga majbur qilgan narsa yana ovoz detali hisoblanadi. Faqat bu safar “na‘ra”, “hayqiriq” shaklida beriladi. Kulminatsiyada tasvirlangan mazkur jarayondan so‘ng Xodiyl va Oygulning bola qilg‘idan kulishlari yechimni xosil qiladi.

“Mening hayqirganimgami yoki boshqa sababdanmi, ikkisi baravariga ortiga o‘g‘irilishdi-da, avvaliga hayrat bilan menga tikilishdi. So‘ng esa yosh bolaning qilg‘idan zavqlangan kattalar kabi birdaniga jilmayishib, yana asta yo‘llariga ketaverishdi”(59-bet)

Ijodkor hikoya so‘nggida bolaning ruhiy iztiroblarini ifodalash uchun yana ovozga murojaat qiladi. Ko‘z o‘ngida o‘z sevgisini boy bergan o‘smirning qalb tug‘yonlari go‘dak yig‘isiga hamohang talqin qilinadi, go‘dak bilan birga uning yuragi ham yig‘lar edi:

“Shiyponing narigi tarafidan go‘dakning yig‘lagani eshitildi.

Yuragim oqib borardi, unga qo‘shilib men ham oqardim.”(59-bet).

XULOSA

Nabi Jaloliddin hikoyaning syujet harakatida ovoz detalidan juda samarali foydalangan. Detalning o‘ziga xos belgilaridan samarali foydalanish asarning badiiy saviyasini oshirishga xizmat qilgan. Yozuvchining me‘yor talablaridan chetga chiqmaganligi, badiiy strukturaning mukammal bo‘lishida mayda epizodlarga ham katta e‘tibor qaratganligi ijodkor mahoratining yuksakligini bildiradi. Birgina ovoz yoki ohangning poetik funksiyalari asarda ko‘p vazifalarni bajargan. Ovoz qahramonlarning xarakterini, ruhiy holatlarini ochib berish bilan birga asar voqealarining oqimiga, hikoya drammatizimining boy bo‘lishiga xizmat qilgan. Shuningdek, mazkur detal asarning makro va mikro strukturasi muhim badiiy-estetik vazifalarni bajargan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Хасанов Ш. Абдулла Қаҳҳорнинг ҳикоячилик маҳорати. Ўзбек адабий танқиди: [антология] /тузувчи ва нашрга тайёрловчи Б.Каримов; таҳрири ҳайъати У.Норматов [ва бошқ] – Т.: “TURON-IQBOL”, 2011.
2. Жалолдин, Наби. Эркаги бор уй: ҳикоялар ва қиссалар – Т.: “Шарқ”, 2005.
3. Ҳамдамов У. Янгиланиш эҳтиёжи. - Т.: “Фан”, 2007.
4. Улуғов А. Адабий қаҳрамон қадри. Ўзбек адабий танқиди: [антология] /тузувчи ва нашрга тайёрловчи Б.Каримов; таҳрири ҳайъати У.Норматов [ва бошқ] – Т.: “TURON-IQBOL”, 2011.
5. Солижонов Й. Деталлар тилга кирганда. Ўзбек адабий танқиди: [антология] /тузувчи ва нашрга тайёрловчи Б.Каримов; таҳрири ҳайъати У.Норматов [ва бошқ] – Т.: “TURON-IQBOL”, 2011.
6. Солижонов Й. Кузгудаги ҳаёт. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти. Т.: 2013.